Temperament.Temperament va uning turlari.

Xarakterning tarkibi,shakllanishi ,tuzilishi va xususiyatlari hamda inson hayotidagi o’rni.

Sultonova Gulrux Islomjonovna

Samarqand davlat chet tillari institute talabasi

Ilmiy rahbar: Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasi katta o’qituvchisi

Narziyeva SHahnoza Amirovna

Annotatsiya: Maqola inson temperamenti va uning shakllanishi hamda xarakterning xususiyatlari haqida atroflicha malumot beradi.Turli temperament vakillari bilan suhbatlashish jarayonlaridagi muhim taraflarini yoritib beradi.

Kalit so’zlar: Temperament,xarakter, xolerik, sangvinik ,melanxolik,flegmatik

Temperament shaxs faoliyati va xulqining dinamik va emotsional -hissiy tomonlarini xarakterlovchi individual xususiyatlar majmuyidir Yani temperament insonning turli vaziyatlarga narsa va hodisalarga ,insonning xatti-harakatlariga nisbatan reaksiyasini tushuntirib beruvchi xususiyatlar majmuyi hisoblanadi.

Temperament psixologik jihatdan olganda, kishidagi hissiyotning qo’zg’alishilarida va kishidagi umumiy harakatchanlikda ko’rinadigan individual xususiyatdir.Har qaysi kishidagi hissiyotning qo’zg’alish tezligi,kuchi va barqarorligi har xil bo’ladi.Bir xil odamlarning hissiyoti tez, kuchli qo’zg’aladi va barqaror bo’ladi.Ba’zi kishilarda esa sust,zaif bo’lib ,uzoqqa bormaydi .Temeramentning bunday xususiyatlari kishidagi hissiyotning qo’zg’alishlari bilan birga, organizmning atrofdagi muhit ta’siriga javoban ko’rsatadigan ixtiyorsiz reaksiyalarida ayniqsa yaqqol ko’rinadi.Bu xususiyatlar tashqi tomondan kishining mimikalarida,pantomimikalarida,har xil beixtiyor ish-harakat va imo-ishoralarida ko’rinib turadi. Kishi hissiyotining bunday qo’zg’aluvchanlik xususiyatlari diqqatning kuchi va barqarorligida,iroda sifatida ,aqliy jarayonlar,jumladan, nutq tezligida aks etadi.Mana shunday ixtiyorsiz faollikning qanday yuz berishiga qarab bir xil odamlarni tez betoqat serg’ayrat, jo’shqin deymiz.

Bazilarni esa sustkash ,ishyoqmas deb ataymiz.

Psixologiya fani tarixida temperament haqidagi ta’limotni birinchi bo’lib qadimgi grek olimi Gippokrat yaratdi. Gippokrat temperamentning mohiyati va temperament tiplarining nomlarini asoslashga harakat qilib,o’tkazgan tadqiqotlari asosida temperamentga xos xususiyatlarni tizimiga solib,quyidagi turlarga ajratgan.Gretsiya faylasuflari to’rt element -havo ,suv ,olov va tuproq elementlariga muvofiq keladigan sifatlar ;issiqlik ,sovuqlik,quruqlik va namlik sifatlari to’g’risidagi gipotezalarga asoslangan holda,ular inson a’zosida bu elementlarga to’g’ri keladigan to’rtta asosiy suyuqlik bor,deb hisoblaydilar.

Xolerik ‘’safro’’,’’zaxar’’ manosini bildirib,kishining xarakatchanligini ifodalaydi.

Jahldor,qatiyatli,mas’uliyatli,harakatchan, ularning e’tiborini jalb qilish mushkuldir.

Xolerik juda g’ayratli, ishga ehtiros bilan berilishi qobiliyatiga ega bo’lgan, tez, va shiddatli, qizg’in emotsional portlash va kayfiyatning keskin o’zgarishiga moyil, ildam harakatlar qiladigan inson bo’ladi

Xolerik temperament harakatchan,serjahl va chaqqon,hissiyotning tez va kuchli qo’zg’aluvchanligi ,barqaror bo’lishi bilan ajralib turadi.

Sangvinik qon degan ma’noni bildirib, kishining harakatchan va quvnoqligini bildiradi.Vaziyatlarga, etiborini tortgan narsalarga tezda o’z munosabatini bildiradigan,o’zlariga ishonuvchan, harakatlari yengil, va tez, mimikalari tabiiy, nutqi ravon va jarangdor, lekin tez zerikuvchan, o’zgaruvchan inson.Sangvinik psixik faollikka ega bo’lgan, atrofda bo’layotgan vazifalarga tez munosabatini bildiruvchi, taassurotlarni hadeb o’zgartirishga intiluvchi, ko’ngilsizliklarni yengil o’tkazib yuboruvchi, jonli, harakatchan,ifodali mimikasi va harakatlari bo’lgan insonlarga aytiladi.

Melanxolik qaro safro degan ma’noni bildirib, kishining g’amginligini ko’rsatadi.Passiv, xayolparast, nutqi past va sekin, dilidagini ochiq ayta olmaydigan inson. Tasirchan, chuqur kechinmali, gap ko’tara olmaydigan, ammo atrofdagi voqealarga unchalik e’tibor bermaydigan, o’zini to’xtata oladigan va sekin ovoz chiqaradigan insonlar Melanxolik deb ataladi .Melanxolik temperament hissiyotning sekin, lekin kuchli qo’zg’aluvchanligi va barqaror bo’lishi bilan farqlanadi.Melanxoliklar barqaror, davomli kayfiyatga moyil bo’lib, bu tur sustkash bo’ladilar.Bu temperament egalari ishga birdan kirishmasligi mumkin, lekin kirishgandan keyin boshidan oxirigacha yetkazadi.

Flegmatik balg’am degan manoini bildirib, kishining tinch va harakatsizligini bildiradi.Hayot yo’li tekis va ravon, shoshilmasdan harakat qiladigan, kamgap inson. Yuragi keng, barqaror intilishga va doimiy his-tuyg’ularga ega, harakatlari va nutq bir maromda bo’lgan, ruhiy holatini tashqi tamondan ifoda eta olmaydigan insonni flegmatik deymiz.

Har bir temperament vakillari o’ziga xos va ular bir-birlaridan ajralib turadi.

Har bir odam har qanday boshqa odamdan o’zining individual -psixologik xususiyati bilan ajralib turadi.’’Xarakter’’ so’zi aynan tarjima qilinganda grekchadan ‘’tamg’a’’ degan ma’noni bildiradi.Lekin har qanday individual xususiyatlari ham xarakter bo’la olmaydi. Masalan, ko’rish va eshitishning o’tkirligi, tez esda olib qolish bu xarakter emas.Xarakter deganda mazkur shaxs uchun tipik hisoblagan, faoliyat usullarida namoyon bo’ladigan, tipik sharoitlarga shaxsning munosabati bilan belgilanadigan individual - psixologik xususiyatlar yig’indisi tushuniladi.Xarakter xususiyatlarining namoyon bo’lishi -har bir tipik vaziyat vaziyat hissiy kechinmalarining individual o’ziga xos xususiyati shaxs munosabatlariga bog’liq. Ikkinchi tomondan, har bir tipik vaziyatdagi harakat sifatlari va individual o’ziga xos usullari shaxs munosabatlariga bog’liq. Xarakterning intellektual, hissiy va irodaviy xislatlarini ajratish mumkin.

Xarakter xislatlari shaxsning qiyin hosil qilinadigan va mustahkamlanib qoladigan xususiyatlari bo’lganlari tufayli, xarakterning fiziologik asosi ham individual hayot jarayonida asab tizimining o’zgargan xususiyatlaridan iborat.

Psixologiya tarixida xarakterning tipologiyasini yaratishga bir necha bor urinib ko’rilgan. Nemis psixologi va psixiatri Krechmer tomonidan xx asr boshlarida tavsiya etilgan tipologiya eng mashhur va dastlabki urunishlardan biri edi.Keyinchalik uning hamkasblari U. SHeldon, Fromm, Leongard va Lichkolar tomomidan ham shunday tipologiyalar tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.’’UMUMIY PSIXOLOGIYA ‘’ Ergash G’oziyev, O’zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti .

2.P.I .Ivanov, M.E.Zufarova Umumiy psixologiya

3.’’UMUMIY PSIXOLOGIYA’’ P.I.Ivanov, M.E.Zufarova O’zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti [Toshkent 2008]

4.Pavlovning ‘’Umumiy psixologiya’’ kitobidan

5.Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti psixologiya kafedrasi darslikl